

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI VA ULARNING TARJIMA MUAMMOLARI

Azizov Shohinur Bobirjon o'g'li

*Andijon Davlat Chet tillari Instituti Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va madaniy jihatlari o'rganilib, ularni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va tarjima strategiyalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarga ega ekanini va ularni adekvat tarjima qilishda kontekst muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birliklar, qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, madaniy omillar.*

KIRISH

Frazeologik birliklar tilning eng murakkab va milliy xususiyatlarni mujassam etgan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Har bir tilda frazeologizmlar xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va madaniy qarashlarini aks ettiradi. Shu sababli ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki o'z navbatida tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Frazeologik birliklar tushunchasi va tasnifi

Frazeologik birliklar — tarkibiy qismlari alohida ma'noga ega bo'lsa-da, butun holda ko'chma ma'no anglatuvchi turg'un birikmalardir. Ularni "idioma" lar deb ham atashimiz mumkin.

Semantik qiyos

Semantik jihatdan ayrim lekin juda sanoqli, frazeologik birliklar ikki tilda to'liq mos keladi:

to try (test) someone's patience - kimnidir sabrini sinamoq

have something on the tip of my tongue - tilimni uchida turibdi, ya'ni biror nima hozir aytib yubora olaman

in the blink of an eye - ko'z ochib yumguncha

on one's shoulders - kimningdir yelkasida bo'lish, ya'ni kimningdir zimmasida degan ma'noda

play with fire - olov bilan o'ynashmoq, ya'ni biror xavfli yoki tavakkalli ishga qo'l urmoq ma'nosida

Boshqa hollarda esa umuman mos kelmaslik holatlari kuzatiladi:

Masalan, ingliz tilida eng keng tarqalgan frazeologik birikma (idioma) lardan biri kick the bucket, o'zbek tiliga so'zma so'z tarjima qilinganda "chelakni tepmoq", yoki "paqirni tepish" deb aytiladi, lekin aslida esa bunday tarjima mumkin emas. Uning

o'rniga "vafot etmoq", "o'lmoq", "dunyodan o'tmoq" deb tarjima qilinishi kerak va bu ko'pincha norasmiy hollarda kulgili ma'noda qo'llaniladi.

Yoki "for a song" iborasi so'zma so'z tarjimada "musiqa uchun" deb aytilishi noto'g'ri bo'ladi. Bu aslida biror narsani juda arzon narxga xarid qilinganda ishlatiladigan ibora bo'lib, o'zbekchada "juda arxon narxda", yoki "deyarli suv tekinga" deb tarjima qilinishi ma'noliroq bo'ladi.

Yana bir misol sifatida "Achilles' heel" iborasini keltirishimiz mumkin. O'zbek tilidagi so'zma-so'z tarjimada u "Axillesning tovonni" deyilishli xato hisoblanadi. Aslida esa bu ibora "kimningdir nozik yoki og'riqli nuqtasi, jihati" deb tarjima qilinishi kerak.

Ingliz va o'zbek frazeologik birliklarining qiyosiy tahlili

Strukturaviy qiyos

Ingliz tilida fe'l + ot modeli keng tarqalgan (break the ice), o'zbek tilida esa fe'l markaziy o'rin tutadi (muzni eritmoq — muloqotni boshlamoq).

Madaniy omillar

Frazeologik birliklar milliy madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Ikki tilning madaniyatlari va frazeologik birikmalarini qiyoslash natijasida frazeologik ekvivalent bilan tarjima qilish, boshqacha aytganda, madaniy moslashtirish orqali tarjima qilish ham mumkin. Bunda biror-bir idioma o'zbek tilidagi ma'lum bir frazeologik birliklarga semantik jihatdan to'liq ekvivalent bo'la oladi.

Rome wasn't built in a day - Musulmonchilik asta-sekinlik bilan

When pigs fly - Tuyaning dumi yerga tekkanda

Kill two birds with one stone - Bir o'q bilan ikki quyonni urish

Safe and sound - sog'-omon, eson-omon

Bu frazeologizmlar turli madaniy muhitda shakllangan bo'lsa-da, hatto tarjimasi boshqa so'zlar orqali berilsa-da, semantikasi ya'ni ma'nosi bir xil hisoblanadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolari

Frazeologizmlarni tarjima qilishda quyidagi muammolar yuzaga keladi:

ekvivalent frazeologik birlikning doim ham bo'lavermasligi

milliy-madaniy realiyalar

stilistik moslikni saqlash qiyinligi

Shu sababli tarjimada quyidagi strategiyalar qo'llanadi:

To'liq frazeologik ekvivalent orqali tarjima

Qisman ekvivalent orqali tarjima

Tavsifiy (izohli) tarjima

Kontekstual moslashtirish

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili ularning semantik, strukturaviy va madaniy jihatdan sezilarli farqlarga ega ekanini ko'rsatdi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida nafaqat lingvistik, balki madaniy omillarni ham hisobga olish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Michael McCarthy, Felicity O'dell. English idioms in use. Intermediate. 2017
2. Paul S. The 800 most commonly used idioms in America. 2005-2007
3. Michael McCarthy, Felicity O'dell. English idioms in use. Advanced. 2010